

CHIQUINDI GAZLARNING INSON SALOMATLIGA TA'SIRI VA UNING BARTARAF QILINISH YO'LLARI

t.f.n, dosent: Xudoyberdiyev A.X magistr: Berdiqulov A A. (SamDAQI).

Prezidentimizning 2006- yil 14- dekabrda «Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va respublika avtotransport parkini yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori muhim ahamiyatga ega. Samarqand shaxri bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda yengil avtobomillar soni 42 000 ta, yuk mashinasi 2 800 ta, avtobuslar soni 1000 ta, mikro avtobuslar soni esa 2 000 tani tashkil etadi. Mazkur avtomobillar harakati shahar aholisiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Tun-u, kun qatnovda bo'lgan mashinalardan ajralib chiqadigan gazlar tarkibi o'rganilib, inson salomatligiga ta'siri va yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari qo'llaniladi, amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 fevraldagi «Avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stansiyalari va avtomobillarga gaz quyish stansiyalari shaxobchalarini rivojlantirish hamda avtotransport vositalarini suyultirilgan va siqilgan gazga bosqichma-bosqich o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori bo'yicha 2007-2012 yillarda jami 138 ta avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari va 952 ta avtomobillarga gaz tarqatish shaxobchalari qurib bitkazilishi hamda 119 mingta avtotransport vositalari suyultirilgan gazga, 69 mingtani esa siqilgan gazga o'tkazish rejalashtirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda 900 milliondan ortiq avtomobil mavjud. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, agar avtomobil transporti rivoji shu tariqa davom etsa, 2017 yilga kelib ularning soni 1,8 milliardga yetishi mumkin. Kishilar uzog'ini yaqin qiluvchi avtoullovlar sonining ortishi xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanishiga olib keladi, biroq ularning atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Ma'lumki, motor silindiri harorati 2000 darajadan oshganda o'ta zararli azot gazlari hosil bo'ladi. Shuningdek, 1 litr avtomobil yonilg'isi sarfi uchun 15 kilogramm havo talab qilinadi. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, shaharlarda bir kunda 10 mingta avtomobil o'rtacha 10 litrdan yonilg'i sarflasa, yil davomida 36 million 500 ming litr yonilg'ini yondirish uchun qariyb 117 ming tonna kislorod kerak bo'ladi. Bu esa havodagi kislorodning 10-20 foizini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi manbalarning asosiy qismi avtotransportlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Avtoullovlardan chiqayotgan zararli tutunlar tarkibida 200 dan ortiq zararli birikmalar (o'ta zararli bo'lgan benzaprin, qo'rg'oshin va boshqalar) mavjud. Mazkur birikmalar o'pka

saratori, yurak xastaliklari va boshqa og'ir kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois bunday zararli moddalar miqdorini kamaytirish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Ayniqsa, bu holat benzin bilan harakatlanadigan avtotransportlarga tegishli. Boisi bunday avtoulavlarning atrof-muhitga zararli ta`siri boshqa avtotransportlarnikidan ortiqligi va zararliligi bilan ajralib turadi. Masalan, 1 tonna etillangan benzin yoqilganda havoga 788,3 kilogramm, suyultirilgan neft gazida 585,0 kilogramm, qisilgan tabiiy gaz yoqilganida 274,0 kilogramm va dizel yonilg'isida 208,5 kilogramm zararli modda chiqadi. Atmosfera havosi ifloslanishini kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlardan biri avtomobil dvigatelining ishlatilgan gazlari zaharliligi va tutun miqdorini davlat nazoratidan o'tkazish hisoblanadi. Mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi 1 martdan boshlab «M2», «M3» va «N2» toifalaridagi foydalanilgan avtotransport vositalarini va zararli chiqindi chiqarish darajasi «Yevro-2» ekologik daraja talablariga javob bermaydigan benzin va dizel motorlari bilan jihozlangan yangi avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va ulardan foydalanish ta`qiqlanadi.. Avtotransportlardan chiqadigan gazlar bilan bog'liq ekologik muammoni hal etish ustida jahonning bir qancha ilmiy markazlari tadqiqot olib bormogda. Tadqiqotlar natijasida ma`lum bo'ldiki, avtomobillarning muqobil yonilg'i turiga o'tkazilishi zararli gazlar miqdorini kamaytirishga, tirik mavjudotlarga hayot bag'ishlovchi kislorodning kamroq sarf bo'lishiga, «bug'xona effekti» hosil qiluvchi va ozon qatlamini yemiruvchi moddalar kamayishiga olib keladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, muqobil yonilg'i deyilganda to'liq yonib atmosferaga chiqarilayotgan gazlarni kam hosil qiluvchi yonilg'i turi tushuniladi.

Xulosa o'rnida ta`kidlash joizki, avtomobil transportidan foydalanish jarayonini o'zaro muvofiqlashtirishning maqbul yechimini topish orqali o'simlik va hayvonot dunyosi genofondi, biologik xilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini yaxshilash, hozirgi va kelgusi avlodni qulay atrof-muhit sharoitida yashashini ta`minlash mumkin.